Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317170

3. Akaev A.A., KenjabaevA.T., Ilhamova YO.S., Jumaniyozova M.Ю. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“Fan va texnologiya”. 2019.- 448 bet.
4. Илхамова Ё.С., Джуманиязова М.Ю., Маннанова Ш.Г. Информационные комплексы и технологии в экономике. Учебник. Т.: “Инновацион ривожлантириш нашриёт-матбаа уйи”.2020.-648 стр

ERKINLIKNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI.

Ergashev I
TDIU Andijon fakulteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”

kafedrasi katta o‘qituvchisi f.f.n.

Erkinlik namoyon bo‘lish shakllariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: ahloqiy erkinlik, huquqiy erkinlik, siyosiy erkinlik va hokazo iqtisodiy erkinlik, vijdon erkinligi, ma’naviy erkinlik va hokazo. Masalan, vijdon erkinligi fuqarolarning istagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga ishonmaslik huquqini anglatadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Konstitutsiyasining 35-moddasida: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”[9], – deb yozib qo‘yilgan. Hozirda mamlakatimizda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonun qabul qilingan bo‘lib, unda vijdon erkinligining mamlakatimizdagi asosiy tamoyillari o‘z ifodasini topgan[10].

Bundan ma’lum bo‘ladiki, vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas, tarkibiy qismidir. Mazkur tushuncha fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat’iy nazar, teng huquqligi, barcha diniy konfessiyalarning qonun oldida tengligi, dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyat yo‘qligi, diniy konfessiyalar idoralari tomonidan majburiy yig‘imlar to‘plash ta’qiqlanganligini, diniy idoralar ishiga davlatning aralashmasligini, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini bildiradi. Erkinlikning fuqaro erkinligi kabi yana bir shakli esa har bir fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarida belgilangan huquqlardan foydalana olishi, qonunlarda ko‘rsatib o‘tilgan burchlarni bajarishini anglatadi[11].

[9] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – 8 б.
[10] «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. . – Тошкент, Адолат, 2021 –32 б.

[11] Андриянова Е.В. Эволюция форм свободы (Социально-философский аспект анализа): Дис. ... канд. филос. наук : - Екатеринбург: 2006. - 160 с.

Published: 28.03.2024
Cite this article: Ergashev I (2024). Erkinlikning namoyon bo‘lish shakllari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317170
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas’uliyatlidirlar. Shuning uchun ham mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab yetishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun ma’naviy kamolot manbai bo‘lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas’uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo bu tushunchani ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq etganimizda, uni ommaviy axborot vositalarda doimo yoziladigan va gapiriladigan siyosiy erkinlik bilan aynanlashtirmasligimiz kerak bo‘ladi. Zero shaxs erkinligi falsafaning ham serqirra tushunchalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda biz avvalo iqtisodiy erkinlikni nazarda tutish lozim, ya’ni bu tushuncha qaysidir ma’noda insonning faqat ekspluatatsiyadan ozodligi, ishlab chiqaruvchilar va xususiy ishbilarmonlar o‘rtasida tengsiz munosabatlarinigina anglatmaydi.

Erkinlik va mas’uliyatning noekvivalent almashinuvi rivojlangan mamlakatlarda va uchinchi olam: ko‘pincha shahar va qishloq o‘rtasidagi munosabatlarda aniq namoyon bo‘ladi.

Ammo iqtisodiy erkinlik o‘zining hajmi jihatidan ekspluatatsiyadan oshib o‘tadi, xususan u o‘z ichiga iqtisodiy qaror qabul qilishni qamrab oladi, iqtisodiy harakat erkinligini yo‘lga qo‘yadi[12]. Mazkur holatda individ mehnat turini (tadbirkorlik, yollanma mehnat va hk.) tanlashi, qaysi biri uning maqsadlariga muvofiq, qaysi jabha va sohada o‘z faolligini namoyon qilishini tanlashi uning erkinligini anglatadi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik bizga faqat siyosiy erkinligina emas, balki iqtisodiy erkinlikni ham beradi. Sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqarish, tijorat, korxonalarining chet ellar bilan aloqalari to‘laligicha davlat tasarrufida edi, endilikda ularning asosiy qismi xususiy mulkdorlar qo‘liga o‘tdi. Davlat mulki bilan xususiy mulk huquqiy tenglikka ega bo‘ldi, mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi.

Erkinlikning yana bir ko‘rinishi siyosiy erkinlik deb ataladi. Uni juda muhim, ya’ni insonga normal hayotiy faoliyat ta’minlovchi fuqarolar huquqlari yig‘indisi deyishimiz mumkin. Shu bilan birga siyosiy erkinlik boshqa erkinliklar: iqtisodiy, g‘oyaviy va hokazolar bilan uzviy aloqadorlikka ham ega. Bizningcha, erkinliklarni oddiy vositasi sifatida ko‘rilmasligimiz kerak. Ya’ni siyosiy erkinlik bir vaqtning o‘zida ham vosita, ham qadriyat hisbolanadi. Zero rivojlangan jamiyatni umumiy va teng saylov huquqsiz, adolatli milliy davlat qurilmasisiz, xalqning to‘g‘ridan to‘g‘ri

[12] Галочкина О.А. Экономическая свобода и ее границы : Дис. ... канд. экон. наук : - Чебоксары: 1996. - 154 с.

hamma masalalar yechimida ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Siyosiy komfortga ehtiyoj demokratiya bilan ta’minlanadi. Ijtimoiy afzallikning yana bir tomoni ma’naviy erkinlik bilan ta’minlanadi. Ma’naviy erkinlik bu dunyoqarash, milliy g‘oya, milliy qadriyat va umuminsoniylik tamoyillarini targ‘ib qilish erkinligi demakdir. Odatda, ma’naviy erkinlik masalasi asosiy rasmiy hujjatlar, umumiy adabiyotlarda “vijdon erkinligi” deb yuritiladi. Etimologik jihatdan bu tushuncha keng ma’noga da’vogarlik qilsa-da, u qo‘llanilganda insonning e’tiqod erkinligi huquqi yoki umuman e’tiqod qilmasligini anglatuvchi vijdon erkinligini ham nazarda tutadi

Inson erkinligining gnoseologik erkinligi deb nomlanuvchi chegarasi spesifik xususiyatga ega hisoblanadi. Eslatib o‘tamiz, gnoseologiya bu bilish nazariyasi, ya’ni gnoseologik erkinlik qobiliyati insonning atrof tabiy va sosial olam qonuniyatlarini bilish oqibatida yana ham keng masshtabli va muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyati sifatida belgilanadi. Buyuk nemis faylasufi F.V.Gegel esa erkinlikka “anglab olingan zarurat”[13], deb ta’rif beradi. Bizningcha, Gegel ta’rifida erkinlikni juda ixcham, mantiqiy jihatdan mukammal mazmuni o‘z ifodasini topgan.

E’tiborga olishimiz kerakki, har bir konkret holatda, zaruratni adekvat ravishda anglagan bo‘lsak, bu shaxsiy yoki jamoaviy harakatning optimal variantini tanlashimiz uchun xizmat qiladi. Bu esa maksimalizm, minimalizm kabi bilimlarimizning yuzakiligini yoki amaliyot jarayonida ularni su’istemol qilganimizni ko‘rsatadi. Ammo baribir erkinlik individ sosial maqomini belgilovch bir jihatdir. U absolyut bo‘lishi mumkin emas, chunki individ Robinzon emas: u o‘ziga o‘xshashlar jamiyatida yashar ekan, uning erkinligi boshqa individlar erkinligi bilan moslashtirilishi kerak. Shunday qilib erkinlik nisbiy tushunchadir va mana shu nisbiylikdan barcha demokratik yo‘naltirilgan huquqiy hujjatlar kelib chiqadi. Shunday qilib BMTning inson huquqlari deklaratsiyasida, bu huquqlar amalga oshirilayotgan jarayonda boshqa individlar huquqlarini kamsitmasligi kerak. Ko‘pgina mamlakatlar qonunchiligi boshqa millat-elat vakillariga bo‘lgan nafratni targ‘ib qilishni qat’iyan man qiladi. Masalan, turli g‘arazli maqsadda tuzilgan diniy sektalar faoliyati ta’qib ostida, negaki ular e’tiqodchilarning jismoniy va psixik sog‘ligiga zarar yetkazishi mumkin.

Erkinlikning nisbiy xarakteri shaxs mas’uliyatida, boshqa shaxslar bilan munosabatida va jamiyat oldidagi insonning burchida o‘z aksini topadi. Shaxs erkinligi va mas’uliyati o‘rtasidagi tobelik proporsionaldir: jamiyat insonga qanchalik

[13] Гегель. Наука логика. 1-том. – М: Мысль, 1995. - С. 338.

ko‘p erkinlik bersa, bu erkinlikdan foydalanish mas’uliyati ham ortib boraveradi. Aks holda jamiyatni yemiruvchi anarxiya yuzaga keladi.

Buni har birimiz har soat, har soniya esdan chiqarmasligimiz lozim. Gyote aytganidek: “Qachonki biz o‘zimizdan oliy narsani faqatgina tan olishnigina emas balki hurmat qilishni o‘rgansak erkin bo‘lib boraveramiz. Chunki bunday hurmat bizni buyuklashtiradi; tan olishni va ichimizda qandaydir oliylikni ko‘tarib yurishimizni ko‘rsatadi. Shu bilan unga teng bo‘lishga loyiqdirmiz”[14].

Erkinlik - bu insonga yuklatilgan yuksak mas’uliyatdir. Bunday mas’ullik insonning jamiyat oldidagi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mana shu vazifani bajarishni erkin, ixtiyoriy tanlash, irodaga ega bo‘lish, uni vijdonan bajarishi bilan birgalikda insondan katta mas’uliyat ham talab qildi. Erkinlik va mas’uliyat insonning o‘zligini anglash darajasini ham anglatadi. Inson o‘z mohiyatini, vazifasini, ayniqsa jamiyat va yaqinlari oldidagi mas’ulligini chuqur anglab yetgan holda ish tutsagina yuksak darajada erkin bo‘lib boraveradi.

Bundan tashqari, erkinlik va mas’uliyatni falsafiy qarashlarda qaydarajada aks ettirilganligi masalasiga o‘z e’tiborimizni qaratsak, bu tushunchalar ortida yotgan muammolarni chuqur tushunish va tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bizga ma’lumki, Sharq va G‘arb falsafasi hayotning tub va o‘zak masalalari bo‘yicha bir-birini to‘ldirib, boyitib kelgan, bir-biridan oziqlangan, bir-biridan ta’sirlanib kelgan.

Shaxs amaliy faoliyati hayotiy pozisiyasini belgilovchi falsafiy-axloqiy kategoriya bo‘lgan erkinlik va mas’uliyat masalasi tadqiqida ham Sharq va G‘arb qomusiy bilim egalari ana shu me’yoriy uyg‘unlikni saqlaganlar. Garchi bu kategorial hodisalarni talqin etishda davr ruhi, tafakkur tarzi mentalitetdagi o‘ziga xos tomonlar ta’sirida ularning bu masaladagi qarashlarida muayyan farqlarni keltirib chiqargan bo‘lsada, umuman erkinlik va mas’uliyatni ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan izohlashda mushtaraklik ko‘zga tashlanib turadi. Jumladan, antik davr faylasuflaridan biri Avreliy Avgustin “Erkinlik, tafakkurning ne’mati emas, inson irodasining xususiyati” degan nuqtai-nazarni ilgari sursa, B.Spinoza “Erkinlik insonning yashashga intilishi, muhabbati, ishtiyoqi asosida shakllangan zaruratdir” degan fikrni tasdiqlashga urinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 8 b.
2.«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. . – Toshkent, Adolat, 2021 –32 b.

3.Автобиография И.Гете. Поэзия и Правда (Wahrheit und Dichtung). — М.: Захаров, 2003. — 736 с.